

XIVA-ISLOM DUNYOSINING TURIZM SHAHRI

*Kurbanova Zulayxo Kuranbayevna*

*Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti*

*Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi*

**Kalit so'zlar:** islom dunyosi, turistik salohiyat, turizm poytaxti, konferensiya, gidlar forumi, til ko'nikmalari, tarjima nazariyasi, sinxron tarjima, ketma- ket tarjima, yozma tarjima

**Ключевые слова:** исламский мир, туристический потенциал, туристическая столица, конференция, форум гидов, языковые навыки, теория перевода, синхронный перевод, последовательный перевод, письменный перевод.

**Key words:** Islamic world, tourism potential, tourism capital, conference, guide forum, language skills, translation theory, simultaneous translation, consecutive translation, written translation

**Annotatsiya:** Xiva shahri 2024-yilda "Islom dunyosining turizm poytaxti" deb e'lon qilinganligi munosabati bilan hamda Xiva shahrining turistik salohiyatini xalqaro maydonda faol targ'ib qilish maqsadidagi chora-tadbirlar, volontiyor gid hamrohlar tayyorlash, Urganch davlat universitetidagi Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida gid hamroh hamda tarjimonlarni yetishtirishda o'qitiladigan asosiy fanlar.

**Аннотация:** В связи с объявлением города Хивы «Туристической столицей исламского мира» в 2024 году и мерами по активному продвижению туристического потенциала города Хивы на международной арене, проводится подготовка гидов-волонтеров, на Кафедра теории и практики перевода Ургенчского государственного университета основные предметы, преподаваемые при подготовке гидов-переводчиков.

**Abstract:** In connection with the declaration of the city of Khiva as the "Tourism Capital of the Islamic World" in 2024 and measures to actively promote the tourist potential of the city of Khiva in the international arena, training of volunteer tour guides, at the Department of Theory and Practice of Translation at Urganch State University the main subjects taught in the training of guides and interpreters.

2022-yil 27-29-iyun kunlari Ozarbayjon Respublikasi Boku shahrida bo'lib o'tgan Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar turizm vazirlarining XI sessiyasida Xiva shahri 2024-yilda "Islom dunyosining turizm poytaxti" deb e'lon qilindi. Yig'ilishda Xivaning tarixiy qiyofasi tiklanishi, restavratsiya va konservatsiyaga oid amalga oshirilgan ishlar, qolaversa, elektr ustunlarning demontaj qilingani, sayyohlarning katta oqimini qabul qilish uchun yaratilgan sharoitlar, infratuzilmaning

yaxshilangani, 5 yulduzli mehmonxona qurilishi hamda butik-otel va hostellar qurilishi faol davom etayotgani alohida qayd etilgan edi. Bundan tashqari, turizm va unga yondosh sohalar tadbirkorlari uchun yaratilgan qulay sharoitlar yuqori baholangan edi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Xiva -2024-yilda Islom dunyosining turizm poytaxti” deb e‘lon qilinganligi munosabati bilan hamda Xiva shahrining turistik salohiyatini xalqaro maydonda faol targ‘ib qilish maqsadida xalqaro tadbiriga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlar ishlab chiqdi. Jumladan: “Xiva — 2024-yilda islom dunyosining turizm poytaxti” xalqaro tadbiriga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tarkibi tuzildi, “Xiva — 2024-yilda islom dunyosining turizm poytaxti” xalqaro tadbiriga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Ushbu shior ostida Xiva shahrida xalqaro tadbirning rasmiy ochilish marosimi hamda Islom hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar turizm vazirlarining XII sessiyasi o‘tkazildi, ushbu xalqaro tadbirga Islom hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlardan ishtirokchilar va ekspertlar jalb qilindi, xalqaro tadbir ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borildi.

Joriy yilning 31-maydan-2-iyunga qadar bo‘lib o‘tgan “Xiva-Islom dunyosining turizm poytaxti” yili doirasida Xorazm viloyatining Xiva shahrida IHTga a‘zo 57 davlatning turizm vazirlari va turistik ma‘muriyatlari rahbarlarining yig‘ilishi yuqori darajada o‘tkazildi. Shu bilan birga, Islom olami va ziyorat turizmi salohiyatini ochib beruvchi ilmiy-amaliy anjumanlar, fotoko‘rgazmalar va art-ekspozitsiyalar bo‘lib o‘tdi. Umumiy hisobda 300 nafardan ortiq mehmonlar tashrif buyurdi.

Xiva–O‘zbekistonning qadimiy shaharlardan biri bo‘lib, o‘rta asr sharq me‘morchiligining tengsiz javohiridir. Xiva shahri O‘rta Osiyodagi ochiq osmon ostidagi muzey shahar hisoblanadi. Chunki Xiva Ichan qal‘adagi madrasa, masjid, minora, maqbara va xonadonlarning barchasi UNESCO tasarrufiga olingan yagona shahardir. Bu shaharni ertakmonand shahar desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shaharning go‘zalligini dunyoga tanitish uchun turizmni rivojlantirish asosiy ishlardan biri hisoblanib, shaharning turistik salohiyatini xalqaro maydonda faol targ‘ib qilish maqsadida 2023-2024-yillarda quyidagi tadbirlar o‘tkazildi:

“Taste of Uzbekistan Festival” shiori ostida gastronomik festival;

Xalqaro Etnosport festivali;

Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro kimyo olimpiadasi;

“Lazgi II” xalqaro raqs festivali;

Pahlavon Mahmud xotirasiga bag‘ishlangan “Strongmen” xalqaro bahodirlar o‘yini musobaqasi;

“Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi” doirasidagi tadbirlar.

Mazkur tadbirlar va festivallar nafaqat Xiva shahrini, balki Xorazm viloyatini

ham butun dunyoga tanitishda, shuningdek yuritimizning turistik salohiyatini namoyon qilishda muhim ahamiyat kasb etadi, turistlar oqimini sezilarli ko'payishiga sabab bo'ladi.

Bu kabi nufuzli tadbirlarda tashrif buyurgan mehmonlarga hamrohlik qiluvchi gid-hamrohlar, hamroh-tarjimonlar va volontyorlarning faoliyatini alohida ta'kidlash lozim. Chunki mazkur vazifada xizmat qiluvchi hodimlar mazkur tadbirlarda yurtning yuzi hisoblanishadi va tashrif buyurgan mehmonlar asosiy vaqtlarini ular bilan birga o'tkazishadi, doimiy suhbatda bo'lishadi. Shu sababli turizm jadal rivojlanayotgan Xorazm viloyatida gid va tarjimonlarga bir qancha talablar qo'yilib, malakali gid va tarjimonlarni yetishtirish dolzarb mavzu hisoblanmoqda.

Jumladan: Gid kasbini tanlagan hodimlarga bir necha talablar qo'yiladi, ya'ni gid madaniy-tarbiyaviy ishlarga ishtirok etish ishtiyoqi, tarbiya jarayonida ekskursiya xizmatining mohiyati, undagi o'z rolini tushunishi, burchini his etishi, yaxshi diksiyaga ega bo'lishi, bir yoki bir necha ekskursiya mavzulari bo'yicha aniq bilimlarga ega bo'lishi, o'z bilimlarini uzluksiz takomillashtirishi, yangilikka intilishi, ishda tashabbus ko'rsatishi va ijodiy yondashishi, ekskursantlarni qiziqtirishi va talablarini chuqur o'rganishi, turli guruhdagi insonlarga xizmat ko'rsatishda turlicha yondashuv; tarbiyaviylik, yuqori madaniyat va xulq-atvor, ekskursantlar bilan to'g'ri munosabat yuritishi, ekskursiya xizmatini o'tkazish uslubiga ega bo'lishi, kabi kasb sirlarini yaxshi bilishi kerak.

Gid kasbini tanlaganlar quyidagilarni qila olishi kerak: zaruriy, aniq ma'lumotlarni tanlashi, o'qib o'rganishi, aniq mavzudagi ekskursiyaga individual matn tayyorlashi, uslubiy qo'llanmani tuzishi, ularni amaliyotda qo'llashi, «gid portfeli»dagi ko'rgazmali vositalarni to'g'ri va o'z vaqtida qo'llashi, boshqa gidlar bilan tajriba almashishi, mintaqaning ekskursiya imkoniyatlarini targ'ib qilishda ishtirok etishi.

Gidga 4 turdagi qobiliyat xosdir:

- konstruktivlik;**
- tashkilotchilik;**
- kommunikativlik;**
- tahlil qilish;**

**Konstruktivlik qobiliyati** ekskursiya xizmati ma'lumotlarini tanlash va to'g'ri rasmiylashtirish, uni tushunarli va ishonchli yetkazish, zaruriy hollarda ekskursiya rejasini, uslubiy yo'riqlardan foydalanish tartibini qayta ko'ra olish kabilarda o'z ifodasini topadi va gid fikrlash qobiliyatining asosi hisoblanadi.

**Tashkilotchilik qobiliyati** ekskursiya guruhini boshqara olish, ularning

e'tiborini kerakli ob'ektga yo'naltirish, turistlar va ekskursantlar uchun tasdiqlangan dasturlardagi xizmatlarning bajarilishida o'z ifodasini topadi.

**Kommunikativlik qobiliyati** ekskursiya guruhi bilan ishlaganda o'zaro iliq munosabat o'rnatish, ekskursiya xizmati davomida ushbu muhitni saqlash, marshrut jarayonida avtobus haydovchisi, ko'rgazma, muzey ishchilari, uslubiy to'garak rahbarlari, boshqa gidlar, turistik guruh rahbarlari bilan o'zaro to'g'ri munosabat o'rnatish jarayonida namoyon bo'ladi.

**Tahlil qilish qobiliyati** o'z ishini tanqidiy tahlili, o'tkazgan ekskursiya xizmati sifatini, metodik usullarni qo'llashning samardorligini ob'ektiv baholashida namoyon bo'ladi

So'nggi yillarda Xiva shahrida bo'lib o'tayotgan nufuzli tadbirlarda Urganch davlat universitetining tarjimon-volontyorlar jamoasi muvaffaqiyatli faoliyat olib borishmoqda va mehmonlar bilan birgalikda tashkilotchilarning ham maqtov va e'tiroflariga loyiq ko'rilmogda. Jamoaning faoliyati har bir tadbirda yuqori tomonidan Xorazmda volontyorlar maktabi shakllanayotgani e'tirof etilmogda. Jumladan; Beruniy nomidagi xalqaro kimyo olimpiadasida 27 nafar, Xalqaro etnosport festivalida 113 nafar, "Lazgi II" xalqaro festivalida 51 nafar, "Xiva –Islom dunyosi turizm poytaxti" tadbiri doirasida 70 nafar Urganch davlat universitetining tarjimon-volontyorlar jamoasining a'zolari ishtirok etishdi. Mazkur yutuqlarda universitetning roli, malakali pedagog hodimlarning ilmi va metodikasi, o'qish davomida o'qitilgan fanlarning effekti muhim hisoblanadi va yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi. Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida o'qitiladigan mutaxassislik fanlarga tarjima nazariyasi va amaliyoti, yozma tarjima, og'zaki tarjima, ketma-ket tarjima, avtomatlashtirilgan tarjima, sinxron tarjima, tarjimonlik mutaxassisligiga kirish, asosiy o'rganilayotgan chet tili, tinglash va gapirish amaliyoti va shu kabilar kiradi. Bu fanlarning nazariy qismi o'quv xonalarida o'qitilsa, amaliy qismi, o'rganilgan bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash uchun yuqoridagi festival va tadbirlarning o'rni juda katta.